



ELEKTRON SUD TIZIMIDA XITOIY VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Matyakubova Laylo Murat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasining sud jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan elektron platformalari hamda O‘zbekiston Respublikasining “my.sud.uz” tizimi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tizimlarning tashkil etilish bosqichlari, huquqiy asoslari, institutsional modeli, ilmiy bahosi hamda ularning samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston sud tizimini takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: elektron sud, e-justice, sud axborot tizimi, raqamlashtirish, sud shaffofligi, sun’iy intellekt.

Annotation: This article presents a comparative legal analysis of electronic platforms aimed at digitizing judicial processes in the People's Republic of China and the "my.sud.uz" system of the Republic of Uzbekistan. During the research, the stages of organization of the systems, legal foundations, institutional model, scientific assessment, and their effectiveness were studied. Specific proposals were also developed to improve the judicial system of Uzbekistan.

Keywords: electronic court, e-justice, court information system, digitalization, judicial transparency, artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ электронных платформ Китайской Народной Республики, направленных на цифровизацию судебных процессов, и системы "my.sud.uz" Республики Узбекистан. В ходе исследования были изучены этапы организации систем, правовые основы, институциональная модель, научная оценка и их эффективность. Также были разработаны конкретные предложения по совершенствованию судебной системы Узбекистана.



Ключевые слова: электронный суд, e-justice, судебная информационная система, цифровизация, судебная прозрачность, искусственный интеллект.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati raqamli transformatsiyaning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni, balki davlat boshqaruvining eng konservativ bo‘g‘ini hisoblangan sud-huquq tizimini ham tubdan isloh qilmoqda. “Elektron sud” tushunchasi endilikda huquqiy davlatning ajralmas talabiga aylanmoqda.

Nima uchun sud tizimi elektronlashmoqda?

Sud tizimining raqamli formatga o‘tishi bir necha fundamental omillar bilan izohlanadi:

1. Ochiqlik va shaffoflik: Inson omilini kamaytirish orqali korrupsion xavflarni bartaraf etish.
2. Tezkorlik: Da’vo arizalarini topshirishdan tortib, sud qarori ijrosigacha bo‘lgan vaqtni bir necha barobar qisqartirish.
3. Iqtisodiy samaradorlik: Qog‘ozbozlik, pochta xarajatlari va ortiqcha byurokrtiyani cheklash.
4. Masofaviy imkoniyat: Jismoniy masofadan qat’i nazar, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash.

Elektron sud tizimiga bo‘lgan ehtiyoj asosan XXI asrning birinchi o‘n yilligida, global axborot oqimi keskin ko‘paygan davrda shakllana boshladi. Biroq, bu jarayonga 2020-yildagi global pandemiya eng kuchli turtki bo‘ldi. Dunyo bo‘ylab lokdaun choralari qo‘llanilganida, an’anaviy sud majlislari to‘xtab qolishi xavfi tug‘ildi. Aynan shu nuqtada sudlarning uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun raqamli platformalar yagona yechim sifatida maydonga chiqdi.

Jahonning texnologik yetakchilaridan biri, dunyoda birinchi bo‘lib “Kiber sud” tizimini joriy qilgan Xitoy Xalq Respublikasi tajribasini hamda Markaziy



Osiyoda sud tizimini raqamlashtirish bo'yicha dadil qadamlar tashlayotgan O'zbekiston modelini qiyosiy tahlil qilamiz.

Xitoyning sun'iy intellektga asoslangan "aqlli sud" ya'ni Smart Court texnologiyalari va O'zbekistonning "my.sud.uz" axborot tizimi hamda sud tizimini 2026-yilgacha raqamlashtirish strategiyasi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar adolatni ta'minlashning yangi qiyofasini belgilab beradi. Xususan, sudlarga murojaat qilish jarayonlarini soddalashtirish, inson omilini kamaytirish va shaffoflikni ta'minlash maqsadida elektron sud tizimi joriy etildi. my.sud.uz platformasi orqali fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlari kengaygan bo'lsa-da, ushbu tizim hali to'liq raqamli sudlov modeliga aylangan deb bo'lmaydi. Bugungi global tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, sud tizimini raqamlashtirish nafaqat texnologik modernizatsiya, balki huquqiy davlatni mustahkamlashning strategik vositasidir. Shu bois, O'zbekiston elektron sud tizimini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. XXI asrda raqamlashtirish jarayonlari davlat boshqaruvi bilan bir qatorda sud-huquq tizimiga ham chuqur kirib keldi. Sud tizimining samaradorligi endilikda faqat qonunlar bilan emas, balki texnologik infratuzilma bilan ham belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, elektron sud tizimi zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas elementi sifatida shakllanmoqda.

Elektron sud tizimi sudlovning sifatini oshirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy sud tizimida: hujjatlar aylanishi sekin kichadi, inson omili yuqori darajada saqlanib qoladi, sud jarayonlari yetarli darajada ochiq emas. Bu holatlar sud tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi tizimining barcha bo'g'inlariga kirib borar ekan, sud tizimi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, pandemiya davridan so'ng onlayn sudlov mexanizmlariga ehtiyoj keskin ortdi.



Bugungi kunda sud tizimining samaradorligi uch asosiy mezon bilan baholanmoqda:

1. Tezkorlik
2. Shaffoflik
3. Foydalanish qulayligi

Shu nuqtai nazardan, elektron sud tizimi zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas elementi sifatida shakllandi.

Elektron sud tizimi — bu sud ishlarini yuritish jarayonining barcha bosqichlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirish tizimidir.

U adolatga erkin kirish, protsessual tenglik, ochiqlik va oshkoralik huquqiy tamoyillarga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, Xitoyning sud axborot platformalari hamda O‘zbekistonning “my.sud.uz” tizimini qiyosiy o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xitoyda elektron sud tizimi bosqichma-bosqich rivojlangan bo‘lib, 2013-yildan boshlab sud qarorlarini e‘lon qilish tizimi joriy etilgan. Keyinchalik sud jarayonlarini monitoring qilish va nazorat qilishga mo‘ljallangan platforma — Judicial Process Information Disclosure Platform ishga tushirilgan.¹

O‘zbekistonda esa sud tizimini raqamlashtirish 2017-yildan boshlab jadallashdi va yagona interaktiv portal — my.sud.uz orqali fuqarolarga xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xitoy tizimi evolyutsion rivojlangan ko‘p platformali modelni ifodalasa, O‘zbekiston yagona markazlashgan portal asosida ishlamoqda.

Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, elektron sud tizimi oddiy veb-sayt emas, balki kompleks axborot tizimi hisoblanadi. U quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

-sud ishlarini real vaqt rejimida kuzatish;

¹ CMS Expert Guide to Digital Litigation (China) <https://cms.law/en/int/expert-guides/cms-expert-guide-to-digital-litigation/china>



- sud qarorlari yagona bazasi;
- statistik va analitik modullar;
- sun'iy intellekt elementlari

O'zbekistondagi "my.sud.uz" tizimi esa asosan xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan veb-portal bo'lib:

- ariza yuborish;
- davlat boji to'lash;
- sud majlislarini kuzatish kabi funksiyalarni bajaradi.

Demak, Xitoy modeli — to'liq integratsiyalashgan e-justice ekotizimi, O'zbekiston modeli esa foydalanuvchi xizmatlari platformasi hisoblanadi.

Xitoy huquq tizimi sotsialistik modelga asoslangan bo'lib, unda kontinental huquq elementlari mavjud. Shu bilan birga, "yo'naltiruvchi ishlar" instituti orqali sud amaliyotini birxillashtirishga erishiladi.

O'zbekiston esa klassik roman-german huquq tizimiga mansub bo'lib, unda kodifikatsiya ustuvor hisoblanadi. Bu farq elektron sud tizimlariga ham bevosita ta'sir qiladi: Xitoyda sud amaliyoti bazasi muhim, O'zbekistonda esa normativ hujjatlar ustuvordir.

Xitoyda elektron sud tizimlari Supreme People's Court of China tomonidan boshqariladi va markazlashgan tarzda rivojlantiriladi. Asosiy maqsad — sud faoliyatini to'liq raqamlashtirish va yagona amaliyot yaratishdir.

O'zbekistonda esa elektron sud tizimlari sud-huquq islohotlari doirasida joriy etilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi fuqarolarga qulaylik yaratish va korrupsiyani kamaytirishdan iborat. Xitoy modeli ilmiy doiralarda "data-driven justice" konsepsiyasi sifatida baholanadi. U sud qarorlarining yagona bazasi, tahliliy imkoniyatlar, sud amaliyotining bir xillashuvi jihatidan ustunliklarga ega. Biroq ayrim ekspertlar tomonidan davlat nazoratining yuqoriligi tanqid qilinadi. O'zbekiston modeli esa xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan



bo‘lib, ilmiy jihatdan analitik modullarning yetishmasligi va sud amaliyoti bazasining to‘liq shakllanmaganligi uning asosiy kamchiligi sifatida ko‘rsatiladi:

Xitoy tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun yagona sud qarorlari reyestrini yaratish, “yo‘naltiruvchi sud qarorlari” institutini joriy etish, sun‘iy intellekt asosida tahlil tizimlarini ishlab chiqish, sud ishlarini real vaqt rejimida monitoring qilish yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi². Bu chora-tadbirlar sud tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishini ta‘minlaydi.

Elektron sud tizimini rivojlantirishda asosiy mas‘ul organlar: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, sudlar faoliyatini ta‘minlash organlari, texnik jihatdan esa milliy IT operatorlar jalb qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda yagona “Sud qarorlari milliy reyestri”ni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilikni takomillashtirish uchun ba‘zi yo‘nalishlarda normativ-huquqiy o‘zgarishlar talab etiladi. Masalan, sudlar to‘g‘risidagi qonunchilikni modernizatsiya qilish, protsessual kodekslarga elektron dalillar institutini keng joriy etish, ochiq ma‘lumotlar siyosatini kuchaytirish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini aniqlashtirish yuzasidan zaruratlar mavjud.

1. An‘anaviy sud tizimining cheklovlari

Xitoyda maxsus platformalar orqali sud jarayonining barcha bosqichlari (audio, video, hujjatlar) ishtirokchilarga ochiq holda taqdim etiladi. Elektron tizim har bir protsessual harakatni qayd etadi, bu esa sudyalarning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytiradi³. Xitoy sudlarida AI yordamida qaror tayyorlash, o‘xshash ishlarni aniqlash kabi funksiyalar joriy etilgan. Xitoyda elektron sud tizimi “Smart Courts” konsepsiyasi asosida rivojlangan bo‘lib, quyidagi asosiy platformalarni o‘z ichiga oladi:

² Supreme People's Court of the PRC. White Paper on Chinese Courts and Internet Judiciary. Beijing, 2020.

³World Bank Reports. E-justice: Ethics and Internal Justice Services. <https://www.worldbank.org/en/about/unit/ethics-and-internal-justice-services>



1-rasm. <https://splcgk.court.gov.cn/gzfwwww/>

1. Sud jarayonlarini monitoring platformasi — ish yuritishning barcha bosqichlari haqida ma'lumot beradi. Bu platforma orqali: ish harakati kuzatiladi, sud majlisi yozuvlari va materiallari taqdim etiladi, barcha protsessual hujjatlar elektron shaklda mavjud bo'ladi.

2. To'liq raqamlashtirilgan sud jarayoni — Xitoyda da'vo topshirish, sud majlisi, dalillarni ko'rib chiqish, qaror chiqarishni to'liq onlayn amalga oshirilishi mumkin.⁴

3. Integratsiyalashgan tizim

Sud tizimi boshqa davlat organlari va bank tizimi bilan integratsiyalashgan bo'lib, qaror ijrosini nazorat qilish imkonini beradi.

4. Xitoyda maxsus internet sudlari mavjud bo'lib, ular to'liq onlayn ishlaydi va asosan raqamli nizolarni ko'radi.⁵

⁴ <https://cms.law/en/int/>

⁵ english.court.gov.cn



Сизнинг hozirgi joylashuvingiz: Bosh sahifa > Davlat xizmatlari > **Sud talqinlari**

Chiqaruvchi birlik: Fe nomi:

Fayl nomi	Chiqaruvchi birlik	ishlab chiqarilish sanasi
Oliy xalq sudining ma'muriy kelishuv ishlarini ko'rib chiqishga oid bir nechta masalalar bo'yicha qoidalar	Oliy xalq sudi	2020-01-06
Oliy xalq sudi va Oliy xalq prokuraturasining Xalq prokuraturasi tomonidan jinoyi yoki fuqarolik, jamoat manfaatlariga oid da'v...	Oliy xalq sudi	2020-01-06
Kontrabanda, noqonuniy biznes faoliyati va stimulyatorlardan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq jinoyat ishlarini ko'rib chiqi...	Oliy xalq sudi	2020-01-06
Oliy xalq sudi ko'p qavatli binolardan uloqtirilgan buyumlar bilan bog'liq ishlarni to'g'ri ko'rib chiqish haqida	Oliy xalq sudi	2020-01-06
Axborot tarmoqlaridan noqonuniy foydalanish va axborot tarmog'idagi jinoyatlarga ko'maklashish bo'yicha jinoyat ishlarini ko'...	Oliy xalq sudi	2019-11-12
Oliy xalq sudi va Oliy xalq prokuraturasining imtihonlarda firibgarlikni tashkil etish va boshqa jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda ...	Oliy xalq sudi	2019-09-20
Oliy xalq sudining o'lim jazosini qayta ko'rib chiqish va ijro etish tartib-qoidalarida tomonlarning qonuniy huquqlari va manfaa...	Oliy xalq sudi	2019-08-27
Oshkor qilinmagan ma'lumotlar bilan savdo qilish bo'yicha jinoyi ishlarni ko'rib chiqishda qonunni qo'llashga oid bir qator mas...	Oliy xalq sudi	2019-08-27

2-rasm. Xitoy maxsus internet sudi

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI ОЛИЙ СУДИ

Bosh sahifa Oliy sud sayti Aloqa Interaktiv xizmatlar

- Мурожаат**
Жиноят ва фуқаролик ишлари буйича судларда, маъмурий ва иқтисодий судларга электрон шаклда мурожаат қилиш
- Намуналар**
Фуқароларнинг судларга мурожаат қилишда ҳужжатларнинг тайёр намуналаридан фойдаланиш имконияти
- Калькулятор**
Тўлашиши лозим бўлган давлат божи миқдорини аниқлаш
- Қарорлар тўплами**
Судлар буйича барча якуний суд қарорлари тўлиқ еки мавҳумлаштирилган матнда олиш имконияти
- Электрон тўлов тизими**
Барча тўловларни, шу жумладан, давлат божини ҳисобга олиш ва тўлашнинг
- Суд мажлислари жаъвали**
Ишларни суд мажлисида кўриб чиқишга тайинланган санаси ва вақти ҳақида
- Электрон қабул**
Олий суд раҳбарияти қабулига электрон руйхатдан ўтиш
- Маълумот**
Жиноят ва фуқаролик ишлари буйича судларда, маъмурий ва иқтисодий судларда ҳал қилув

2-rasm. O'zbekiston elektron sud tizimi (my.sud.uz) tahlili

O'zbekistonda elektron sud tizimi my.sud.uz platformasi orqali joriy etilgan bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Da'vo arizalarini onlayn topshirish
2. Sud hujjatlarini elektron olish
3. Ish holatini kuzatish
4. Sud majlislariga masofadan qatnashish (qisman)

Shunga qaramay, tizim hali to'liq raqamli sud modeliga o'tmagan.



Xitoy tizimidagi muammolarga keladigan bo'lsak, platformalar markazlashmagan platformalar ya'ni, ba'zi hududlarda tizimlar turlicha⁶.

Sudyalarda uchun texnik yuklamaning ortishi ham ularning ish samaradorligiga ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston tizimidagi muammolar esa to'liq raqamlashtirishning yo'qligi, shaffoflik darajasining pastligidan tashqari texnologik infratuzilmaning cheklanganligi va foydalanuvchilar uchun interfeysning murakkabligi qiyinchilik tug'dirmoqda. O'zbekiston elektron sud tizimi uchun Xitoy tajribasidan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surish mumkin.

1. To'liq elektron sud modeliga o'tish;
2. Sud jarayonlarini to'liq ochiq lashtirish;
3. Sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish;
4. Yagona milliy sud platformasini yaratish;
5. Davlat organlari bilan integratsiyani kuchaytirish;
6. Internet sudlarini joriy etish birqancha qulayliklarni yaratishi mumkin.

Institutsional yondashuvda esa Xitoy — maxsus internet sudlari mavjud, O'zbekiston — umumiy sudlar doirasida.

Elektron sud tizimi bo'yicha qator xorijiy tadqiqotlar mavjud. Xitoy sud tizimi bo'yicha tadqiqotlar sud jarayonining to'liq raqamlashtirilishi samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi⁷. Yevropa olimlari e-justice tizimi sudga murojaat qilishni soddalashtirishini ta'kidlaydi. AQSh tadqiqotchilari esa sun'iy intellektdan foydalanishda ehtiyotkorlik zarurligini qayd etishmoqda⁸.

Huquqiy jihatdan esa protsessual kafolatlarning buzilishi ehtimoli va AI qarorlarining shaffof emasligi yuzasidan muammolar yuzaga kelishi mumkin⁹.

⁶ Xitoy sud tizimi rasmiy portali. <https://splcgk.court.gov.cn/gzfwwww/>

⁷ CMS Expert Guide to Digital Litigation (China). <https://cms.law/en/int/expert-guides/cms-expert-guide-to-digital-litigation/china>

⁸ China Justice Observer <https://www.chinajusticeobserver.com/>

⁹ Xudaybergenov A. Elektron sud - adolatli va tezkor odil sudlov asosi sifatida. Yuridik fanlar axborotnomasi, 2021.



Ijtimoiy muammolarga kelsak, raqamli tengsizlik, aholining texnologik savodxonligi pastligi qiyinchilik tug'dirishi ham mumkin. Kelgusida to'liq raqamlashtirish, shaffoflik va innovatsiyalarni joriy etish orqali milliy sud tizimini yanada takomillashtirish mumkin.

Xulosa qilganda, elektron sud tizimi nafaqat texnologik yangilik, balki adolatni ta'minlashning yangi modeli hisoblanadi. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, sud tizimini to'liq raqamlashtirish orqali samaradorlik, shaffoflik va ishonch sezilarli darajada oshadi. O'zbekiston esa bu yo'lda muhim qadamlar qo'ygan bo'lsa-da, hali to'liq transformatsiyaga erishmagan. Shu bois, milliy elektron sud tizimini chuqur modernizatsiya qilish — zamonaviy huquqiy davlat barpo etishning muhim shartidir.

Xitoy elektron sud tizimi keng qamrovli va chuqur integratsiyalashgan modelni ifodalaydi. O'zbekiston esa hozircha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan bosqichda turibdi. Kelgusida O'zbekiston uchun asosiy strategik yo'nalish elektron sud tizimini xizmat platformasidan to'liq funksional raqamli adliya tizimiga aylantirishdan iborat. Bu esa sud hokimiyatining ochiqligi, ishonchliligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Sudlar to'g'risida"gi (yangi tahriri), 28.07.2021-yildagi O'RQ-703-sonli hujjat. [Elektron resurs]: <https://www.lex.uz/actinfo/respondents/-5534923>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Sud tizimini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir



qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida", 24.07.2020-yildagi PF-6034-sonli hujjat.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 03.09.2020-yildagi PQ-4818-sonli hujjat.

II. Ilmiy adabiyotlar va hisobotlar:

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: "Tasvir", 2022.

5. Supreme People's Court of the PRC. White Paper on Chinese Courts and Internet Judiciary. Beijing, 2020.

6. World Bank Reports. E-justice: Ethics and Internal Justice Services. <https://www.worldbank.org/en/about/unit/ethics-and-internal-justice-services>

III. Elektron resurslar va rasmiy portallar:

7. Xitoy sud tizimi rasmiy portali. <https://splcgk.court.gov.cn/gzfwwww/>

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy manbalari. <https://www.sud.uz/>

9. CMS Expert Guide to Digital Litigation (China). <https://cms.law/en/int/expert-guides/cms-expert-guide-to-digital-litigation/china>

10. China Justice Observer. Analytical platform on Chinese judicial system. [Elektron resurs]: <https://www.chinajusticeobserver.com/>

11. Xudaybergenov A. Elektron sud - adolatli va tezkor odil sudlov asosi sifatida. Yuridik fanlar axborotnomasi, 2021.